

ASALSHIRALI O'SIMLIKLARNI O'RGANISH

Masaidova Odinaxon Shavkatbek qizi

Andijon davlat universiteti magistranti.

+998 90 268 67 01

***Annotatsiya:** Asalshirali o'simliklarni o'rganilish tarixi. Asal beruvchi o'simliklarni o'rgangan dastlabki izlanuvchilar va bu turdagi o'simliklarni bugungi kun hayotimizdagi tutgan o'rni.*

***Kalit so'zlar:** asal, asalshirali o'simliklar, asalarilar faoliyati.*

Qadimdan asaldan ozuqa sifatida foydalanish, asalarilarni maxsus qutilarda boqish va asalga boy bo'lgan o'simlik navlari maxsus ko'paytirish va ularni saqlab qolish asosiy vazifalardan hisoblangan. Asal shiraga boy ozuqa o'simlik turlari nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda yuzlab izlanuvchilar tomonidan o'rganilgan. Asalshirali o'simliklarni dastavval o'simlik morfologiyasi va anatomiyasi o'rganilgan. O'simliklar tarixini o'rganilish jarayonlarini tahlil qilishdan avval asalshiraga boy bo'lgan o'simliklar haqida ma'lumotlar keltiramiz.

Asalshirali o'simliklar ya'ni nektarli o'simliklar asalari nektar va gulchangi yig'ib oladigan yopiq urug'li o'simliklar. Bunday o'simlik turlari nektarni gultoji yoki gulkosacha burglar, tugunchalar devori yoki gul o'rnida joylashgan maxsus nektar bezlari ishlab chiqaradi. Asalshiraga boy o'simliklar hayotiy jarayonida asalarilarning harakati juda muhim hisoblanadi. O'z- o'zidan asalarilar o'simliklar changlanishida muhim o'rin egallaydi. Tabiatda o'simliklarning chetdan changlanishiga asalarining xissasi 75-80% ga to'g'ri keladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan ba'zi oila vakillari (burchoqdoshlar) da gul toj barglari naychasimon bo'lib ari shira ololmaydi.

Ko'p miqdorda asalshira ishlab chiqaradigan o'simlik turlari kam. Sababi ko'p o'simlik gullari mayda bo'ladi. Biroq, gulhayri, qovoq kabi o'simlik

gullari yirik bo'ladi hamda ko'p miqdorda asalshira ajratib chiqaradi. Gullarning ochilish ritmiga qarab, nektar ajratish jarayonining boshlanishi har xil bo'ladi. Masalan, g'o'zada gul erta tongdan ochilishni boshlaydi. Bunday o'simliklarda nektar ajratish gul ochilish vaqti bilan boshlanadi. Tashqi omillardan yorug'lik, namlik, tuproq ozuqasi yetarli darajada bo'lganda o'simliklarda nektar ajratish jarayoni yaxshi ketadi. O'simlik changlanib bo'lgandan keyin nektardon faoliyati pasayadi. Hamda keyinchalik to'xtaydi. O'simlik changlanib bo'lgandan so'ng nektardon faoliyati tugaydi. Nektardonda qolgan uglevodlar qaytib tuguncha to'qimalariga so'riladi. Turli o'simliklardan ajraladigan nektar miqdori ham o'simlik turiga, yashash muhitiga qarab o'zgaradi. Morfologik jihatidan nektardonlar ikki xil tuzilishga ega bo'ladi.

1. Gulda floral nektardonlar.
2. Guldan tashqari ekstrofloral nektardonlar

Asalshirali o'simliklarni jahon miqyosida o'rganish. Dastavval asalga boy bo'lgan o'simliklarni yunon faylasufi Aristotel o'rgangan. Dastlab, Aristotel asalarilar gulshirani jig'ildonlarida olib kelishlarini va gulchang to'plashlarini o'rgangan. Shundan so'ng bir qancha izlanuvchilar tomonidan ilmiy va kuzatuv ishlari olib borilgan. Fakt sifatida, Fransua Gyuber asalarilar mumni asal va gulchangidan ishlab chiqarishni aniqlagan. Qadimda asal qarzga berish uchun ham foydalanilgan. 1814- yilda P.I. Prokopovich sun'iy mumparni va asal ajratgichlarni yaratgan. Asalshirali o'simliklarni o'rganish davomida, Amerikalik havaskor tabiatshunos John Harvey Lovell (1860-1939) tomonidan "Honey Plants of North America" (Shimoliy Amerika asalshirali o'simliklari) kitobini yozgan. Bu kitob birinchi marta 1926- yilda nashr qilingan. Kitob 408 sahifadan iborat bo'lib, unda asalshirali o'simliklarni oq va qora rasmlari berilgan. Bundan tashqari 1000 ga yaqin Amerikada tarqalgan asalshirali o'simliklar haqida ma'lumot berilgan. "American Honey Plants" (Amerika asalshirali o'simliklari) kitobi Frank C Pellet tomonidan yozilgan. Peter Lindtner yozgan "Garden Plants for Bees" (Asalarilar uchun bog' o'simliklari) kitobi yaratilgan. Bu asarda 750 ga yaqin asalshiraga boy o'simlik rasmlari va ular

haqida ma'lumotlar aytib o'tilgan. Unga ko'ra asalarilar uchun asosiy belgi gullarning rangi va o'zlaridan ajratib chiqarayotgan ifori hisoblanadi.

Asalshiraga boy bo'lgan o'simliklar O'zbekiston hududida o'rganilishi. O'zbekistonda keng tarqalgan bu turdagi o'simlik turlari bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan. Hususan, Bondarenko, Nabiyeu, Arifxanova, Pratou, Holquziyeu, Vernik, Rahimova, Xudayberdiyev, Tajibayeu kabi olimlar o'zlarining o'quv- qo'llanmalari, ilmiy maqolalari va tezislarida bir qancha ma'lumotlarni keltirib o'tishgan. Bu qo'llanmalarda asosan Farg'ona vodiysida tarqalgan asalshirali o'simliklarga urg'u qaratilgan.

Bundan tashqari, asalari sutini olish O'zbekistonda birinchi marta 1964-1965 yillarda "Bo'stonliq" tumanida amalga oshirilgan. Agranom S. Komilov rahbarligida 1965- yili 43 kilogramm asal suti olingan.

Asalshiraga boy bo'lgan o'simliklarni bitta oilaga yoki bir sinfga birlashtirish murakkab masala hisoblanadi. Sababi, asalshirali o'simliklarni deyarli hamma oila vakillari orasidan topish mumkin. Chunki asalshirali o'simliklar deganda gullaridan asalarilar gulshirasi va changini oladigan o'simliklarni tushunamiz. Bunday o'simliklar yovvoyi, madaniy hamda manzarali shakllarda uchraydi. Birgina Farg'ona vodiysining o'zida 24 oila va 130 turkumga mansub 200 turdan ortiq asalshirali o'simliklar uchraydi. Eng ko'p asalshiraga boy bo'lgan o'simliklar Burchoqdoshlar oilasiga tegishli hisoblanadi. Shu oilaga mansub bo'lgan 26 turkumga xos bo'lgan o'simlik turlari asalshirali o'simlik sifatida Farg'ona vodiysida uchraydi. Ikkinchi o'rinda esa Qoqio'tdoshlar (17 turkum) va uchinchi o'rinda Ra'nodoshlar (15 turkum) turadi.

Yangi O'zbekistonda yo'lga qo'yilgan poliz ekinlari, meva va sabzavotlarni yetishtirish va ulardan aholini oziq- ovqat bilan ta'minlashga qaratilgan bir qancha g'oyalar asal ishlab chiqarish, asalarichilik kabi sohalarda faoliyat olib borishga keng imkon berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda asalarichilik bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlar sonini yilda- yil oshib borayotgani ham bu sohada talab bor ekanini anglatadi. O'ylaymizki, tarixdan

bizga meros bo'lib kelayotgan asalarichilik ko'p yillar davomida odamlar tomonidan amalga oshirildi, hamda yanada kengayishi uchun imkoniyatlar yaratiladi.